

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI: TA'LIM TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Qalandarova Madina Jo'rabek qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika institute 3-bosqich talabasi.

e-mail: qalandarovam05@gmail.com

Jumayev Abdimo'min Fayziyevich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi.

e-mail: abdumominjumayev71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13845889>

Annotatsiya. Har bir jamiyatdagi katta-kichik o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlarda tarixiy shaxslarning, jumladan, ziyolilarning o'rni katta bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining pedagogik fikrlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan jadidlar nafaqat o'zining siyosiy harakatlari, balki ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlari bilan tarixga kirdi. Shuningdek, jadidlar asarlarda o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagoglar edi.

Kalit so'z: Jadid, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, usuli jadid, Turon teatri.

JADIDISM MOVEMENT IN TURKESTAN: EDUCATION AND PEDAGOGICAL IDEAS

Abstract. Major and minor changes in every society appear based on the historical conditions of their time. Historical figures, including intellectuals, have a great role in these changes, and each of them puts forward unique advanced ideas. In this article, the pedagogical ideas of Turkestan moderns are discussed. Jadids, who left an indelible mark in the history of our country, entered history not only with their political actions, but also with their educational and pedagogical ideas. Also, Jadids were pedagogues who reflected the best traditions of the Uzbek people in their works, and important life issues related to education.

Key words: Jadid, Abdulla Avloni, Mahmudhoja Behbudi, Usuli Jadid, Turan Theater.

ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ТУРКЕСТАНЕ: ОБРАЗОВАНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ

Аннотация. Большие и малые изменения в каждом обществе возникают исходя из исторических условий своего времени. В этих изменениях велика роль исторических деятелей, в том числе интеллектуалов, и каждый из них выдвигает уникальные передовые идеи. В данной статье рассматриваются педагогические идеи туркестанских

современников. Джадиды, оставившие неизгладимый след в истории нашей страны, вошли в историю не только своими политическими действиями, но и своими просветительскими и педагогическими идеями. Также джадиды были педагогами, отразившими в своих произведениях лучшие традиции узбекского народа, важные жизненные вопросы, связанные с образованием.

Ключевые слова: Джадид, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Усули Джадид, Театр «Туран».

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ro'y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar. Turkiston o'lkasida millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars beradilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon rahoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. Jadidizm (arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi). o'sha davrlardan boshlab bir-biriga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimchilar deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Yurtimiz tarixiga o'z nomini qoldirgan jadidlar bugungi kunda ham e'tirof markazidadir. Jadid bobolarimizning pedagogik mahoratlari tahsinga loyiq desak mubolag'a bo'lmaydi. Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbekning yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 yil 10 martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida tavallud topdi.

Behbudiy “usuli jadid” maktabining zarurligi, uning qonunqoidalari, maktabda o‘tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta’minot masalalari va boshqa ko‘p jihatlarini G‘aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o‘rgandi. Shular asosida Turkistonda “usuli jadid” maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta’minlashda ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o‘z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shukuriyning yangi usuldagi maktabini o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi. “Usuli jadid” maktablarida hamma o‘qish huquqiga ega bo‘lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagi maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib qo‘yar edi. Chunki, podsho hukumati “begona xalq”ning qisman bo‘lsa ham ilm-ma’rifatli bo‘lishini, dunyoviy bilimlarni o‘rganishini istamasdi.

Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktabning muallimlari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari “islom diniga rahna soladi”, “bu maktablarning muallimlari “kofir”, deb tashviqot yuritir edilar.

Bunday qarash va to‘siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari “usuli jadid” maktablarida Turkiston farzandlarini o‘qitish ishlarini jadal suratda olib borardilar.

Taniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an’analarni, ta’lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir. Abdulla Avloniy xalq orasida ilg‘or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma’rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g‘oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907 yili “Shuhrat”, “Osiyo” nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlik qiladi.

Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, “Matbuot har insonga o‘z holini ko‘rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong‘i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g‘oyalari”ni yoyuvchidir deb, baliqning suvsiz yashamog‘i mumkin bo‘lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog‘i mumkin emasligini uqtiradi. XX asr boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egalladi, butun faoliyati davrida u o‘z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi.

Abdulla Avloniy o‘zbek xalqining san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedagogdir. Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda “Turon” nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to‘siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg‘onishiga yordam

ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrda ana shunday salbiy munosabatda bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi.

Ma'naviyatimizning ilk namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat garchand qatag'on qurboni bo'lib, jismonan oramizda bo'lmasa ham u hamisha tirik. Qismati og'ir bo'lgan ulug' siymolar qatori Fitrat butun kuch-qudratini xalqqa bag'ishladi. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug'iladi. "Fitrat" Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z "tug'ma tabiat", "tug'ma iste'dod" degan ma'noni anglatadi. Fitrat zullisonayn yozuvchi sifatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, o'zbek va tojik tillarida birday mukammal asarlar yarata oldi. Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar hozirgi davrda ham katta ma'rifiy ahamiyatga egadir. Fitrat otananing vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga:

1. Jismoniy tarbiya salomatlik,
2. Aqliy tarbiya sog'lom fikrlilik,
3. Axloqiy tarbiya axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi.

Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar. 1898-yilda Qo'qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga erishdilar. Jadidlar ta'lim tarbiya borasida nafaqat maktablar tashkil etish, balki yosh avlodni ongini rivojlantirish uchun chet elda tahsil olish zarurligini ham anglab yetishgan edi.

Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-quvvatladilar. Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev o'z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag' ajratgan. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin maxdum kabilar «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborganlar.

Jadidlar asarlarda o‘zbek xalqining eng yaxshi an‘analarini, ta’lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagoglar edi. Bugungi kunda jadidlarimizning ilg‘or fikrlari hali hamon biz uchun dasturulamal bo‘lib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. R.A.Mavlonova “Umumiy Pedagogika”. Toshkent-2018.
2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” T-1993.
3. R. Mavlonova, N.Raxmonqulov, N.Vohidova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T-2010.
4. Z. Ismoilova “Pedagogika” T-2007.
5. S.Tillaboyev, A.Zamonov “O‘zbekiston tarixi”. T-2019.